

Qalajiq qal'asi atrofida rekreatsiya hududlarini tashkil qilish istiqbollari va ushbu hududga loyihaviy takliflar

Maqsud Bekturdiyevich Setmamatov

maqsud1971@list.ru

Atabek Shuxratovich Xodjayazov

otabek22111988@gmail.com

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning cho'l hududi Xorazm viloyati Bog'ot tumani Qalajiq qal'a arxeologik yodgorligi hududi ekologiyasini yaxshilash bo'yicha rekreatsion hududlarni ko'kalamzorlashtirish va atrofida landshaft tashkil qilish bo'yicha istiqbolli loyihaviy takliflarni ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: emotsional, sarguzasht, zoologik, geologik, geografik, etnografik, arxeologik, agroekotur, agrotur, speologik, rekreatsiya

Prospects for the establishment of recreational areas around Kalajiq castle and project proposals for the area

Maqsud Bekturdiyevich Setmamatov

maqsud1971@list.ru

Atabek Shuxratovich Xodjayazov

otabek22111988@gmail.com

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy

Abstract: In this article, the development of promising project proposals for greening recreational areas and organizing a landscape around them in order to improve the ecology of the Kalajik fortress archaeological monument area of Bogotsky District of the Khorezm region of the steppe region of Uzbekistan.

Keywords: emotional, adventurous, Zoological, Geological, geographical, ethnographic, archaeological, agroecotur, agrotur, speological, recreational

KIRISH

Jamiyatimiz taraqqiy qilishida turli xil hududlardagi tarixiy obidalar hududiga yaqin joylarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Ekoturizmni rivojlantirishda turli xildagi sharoitlarni inobatga olish va shu joylarga bo'lgan ehtiyojni o'rganib turistlarni jalb qilish bugungi kunning dolzarb masalalariga aylanmoqda.

Ekoturizmni ko‘rinishlari bo‘yicha klasslarga ajratishda ularning maqsadi va sayohat olib boriladigan obyektiga qarab tasniflanadi. Ekoturizmlarni maqsadiga ko‘ra:

- *“Yovvoyi” yoki “madaniy” tabiatni kuzatish va o‘rganish (ekologik ta’lim va tarbiya elementlari bilan birga);*

- *Atrof tabiiy muhitda emotsional va estetik jihatdan dam olish;*
- *Tabiiy omillar bilan davolanish;*
- *Sport bilan shug‘ullanish va sarguzasht kabi turlarga ajratiladi.*

Ekoturizmlarni obyektiga ko‘ra:

- *Botanik, zoologik, geologik, geografik va shu kabilar;*
- *Ekologik-etnografik, arxeologik, ekologik-madaniy;*
- *Agroekotur yoki agrotur;*
- *Speologik, suv, tog‘ va shu kabilarga ajratiladi [1].*

Xorazm Orol bo‘yi mintaqalari ichida aloxida iqlimi bilan ajralib turadi. Xorazm iqlim sharoitida yozda issiq ob - havoda harorat ko‘tarilsa, uning namligi kamayadi. Qishda havo eng yuqori sovuq harorati (50 yillik o‘rtacha ma’lumotga ko‘ra) -25 C gacha boradi. Yozda esa ayniqsa havo qiziganda +50, 60 C gacha boradi, aholi sayr qilishi eng qulay ob - havo ertalab va kechqurun soat 17:00 dan keyin bo‘ladi.

Xorazm iqlimi quruqligini inobatga olsak aholi dam olishi uchun yangi rekreatsiya hududlarini tashkil qilishda ekologiyaga alohida e’tibor qaratish maqsadida e’tibordan chetda ya’ni tuman markazidan 2 km uzoqlikda joylashgan Qalajiq qal’a atrofi bugungi kunda sho‘rlangan yerdan aholi dam olishi uchun o‘zlashtirilib chiroyli bir maskanga aylantirilmoqda.

Xorazm viloyati Bog‘ot tumanida joylashgan Qalajiq qal’asi atrofida tadbirkorlar tomonidan bir qancha infratuzilma obyektlari qurilib ishga tushirildi. Asosiy masala tuman aholisi uchun dam olish hududlarini ko‘paytirish va mavjudlarini rekreatsiya hududlari sifatida foydalanish hamda sayyohlarni jalb qilish bo‘yicha yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanishdir.



1-rasm. Qalajiq qal’aning umumiy ko‘rinishi

Qalajiq qal'a atrofida bir qancha tarixiy binolar kompozitsion ko'rinishini aks ettirgan infratuzilma binolari qad rostlagan. Undan tashqari, qal'aning janubiy qismida baliqchilikka ixtisoslashgan klasterlar faoliyat olib bormoqda. Qal'a atrofida turli xil hayvonlarni tomosha qilish hamda otda va tuyada sayr qilish imkoniyati ham yaratilgan. 2-rasm.

Qalajiq qal'asida qurilgan bino va inshootlar ro'yxati

1. Mehmonhona	7. Bostirma	11. O'tov	18. ABK
2. Bostirma	8. Hojatxona	12. Hojatxona	18. KPP
3. Do'kon	9. Chodra	13. Dushxona	19. Qozonxona
4. Do'kon	10. Avtomobillar turish joyi	14. O'tov	20. Basseyin
5. Bostirma	(a,b,v,g,d)	15. Tuyalar turish xonasi	21. Uzun devor (2500 m)
6. Do'kon	10. Bostirma (a,b,v,g,d)	17. Issiqxona	22. Darvoza (8 ta).

Bosh rejada mavjud ko'l va uning atrofida infratuzilma obyektlari qurilgan binolar tasvirlangan. Barcha qurilayotgan bino va inshootlar aholining dam olish vaqtini mazmunli o'tkazishiga qaratilgan bo'lib, bugungi kungacha ushbu hududni obodonlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda.



2-rasm. Qalajiq qal'a hududining bosh rejasi M 1:2000.

Qalajiq qal'adagi tadbirkorlar tomonidan qurilgan tarixiy arxitekturaviy kompozitsion yechimga ega bo'lgan binolar kelajakda, ushbu hudud aholisi dam olishiga moslashtirilmoqda. Shunday ekan ushbu hududdagi ko'l suvini sanitariya gigenik sharoitlardan kelib chiqib, ushbu joyda ko'pchilik aholi tamaddi qilish uchun borishga mo'ljallangan maishiy xizmatni e'tiborga olsak, bir qancha yillar davomida o'zining tozaligini yo'qotgan ko'l suvini shifo baxsh sifatida emas balki uni suvini

butkul tozalash, (Mahalliy xalq tomonidan ataylab tush solingani e'tirof etilgan). sho'rlanish holatidagi tuzlarni butunlay olib tashlab chuchuk suv havzasini yaratish lozim. Ko'l ichida kasadka, delfin baliqlarini 1:1 masshtabdagi maketini harakatlanadigan diagrama qilib joylashtirish kerak. Ko'l atrofini bir metr balandlikka ko'tarish va atrofini toshlari bilan chiroyli qilib qoplash va uning atrofida alleya yo'lak hosil qilib piyodalar sayr qilishlari uchun sharoitlar yaratish. 3-4-rasmlar.



3-rasm. Qalajiq qal'a va ko'li havzasining umumiy ko'rinishi



4-rasm. Qalajiq qal'aning janubiy tomonidagi ko'l havzasini atrofini obodonlashtirishga loyihaviy taklif

Ushbu hududda taxlil qiladigan bo'lsak o'smir yoshlar va voyaga yetmagan yoshlar uchun dam olish imkoniga ega bo'lgan sharoitlarni qo'shimcha qilish maqsadida qal'aga yetmasdan g'arbiy tomonda 15 ga. Yerde park qilish va uni ko'kalamzorlashtirib aholi uchun qo'shimcha rekreatsiya hududini tashkil qilish imkoni mavjud bo'ladi. Parkda yoshlar dam olishlari uchun turli xildagi attraksionlar tashkil qilinadi. Parkga yaqin hududga qal'a janubiy qismidan oqib o'tgan kanalning bir tarmog'ini park ichidan olib o'tish reja qilinadi. Kanal bo'yicha yozgi bolalar

lagerlari ham qurilishi mumkin. Bu bilan katta gektarlagan hududlarda ko‘kalamzor bog‘lar rekreatsiya paydo bo‘lib shu hudud iqlim sharoiti yaxshilanadi va yozning jazirama issiq kunlari aholi dam olishi uchun imkoniyatlar yanada oshishiga zamin yaratiladi. 5-rasm.



5-rasm. Qalajiq qal'aning shimoliy qismida park va unga kanaldan tarmoq tortish va landshaft shakllantirishga takliflar

Ko‘lning suvini butkil tozalansa ishimiz osonlashib ko‘kalamzorlashtirish ishlari samarali kechadi. Agar hozirgi holatida bo‘lsa yillar davomida o‘simliklarni o‘stirish uchun mehnatimiz samarasi ko‘rinishi qiyinlashadi va moliyaviy chiqimlar ko‘payishiga olib keladi. Qilinishi mumkin bo‘lgan tajribalar asosida ko‘kalamzorlashtirish obodonlashtirish ishlarini qilish mumkin. Bu bilan atrofdagi yo‘laklar qirg‘oqlariga Isroil va Gallandiya tajribasi asosida qumli hududga 200 litrlik plastik yoki sopol idishlarni qum ostiga ko‘mib, maxsus unumdor tuproqlarga to‘ldirib, ushbu hudud iqlimiga xos bo‘lgan daraxtlar, landshaft ko‘kalamzorlar tashkil qilishda ushbu sohada ilmiy ish qilgan olimlar tajribasiga tayanib ish tutish lozimdir [2]. (6-rasm).



6-rasm. Qalajiq qal'aning atrofida landshaft shakllantirishga takliflar

“Qalajiqqal’a dam olish va sog‘lomlashtirish maskani”da “Kino shaharcha” ham yaratilgan bo‘lib, suratga olish pavilionlari ham tashkil etilgan. Ushbu shaharchada asosan tarixiy filmlarni suratga olishga moslashtirilgan 6 ta kino povilion, barcha qulayliklarga ega restoran, mehmonxona va boshqa ijtimoiy obyektlar o‘rin olgan.7-rasm.



7-rasm. Qalajiq qal’ada “Kino shaharcha”

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti Shomuratova N.T.”Ekologik turizm va uning geoeologik jihatlari” mavzusidagi dissertatsiya. T.2007 y. 30-b.
2. <http://interesno.cc/article/4677/tehnologija-prevrashhenija-pustyni-v-dzhungli>